



UDK 372.881.1.

Gulnora UMARBEKOVA,

Alfraganus universiteti nodavlat ta'lim tashkiloti katta o'qituvchisi

E-mail:umarbekovagulnora4468p@gmail.com

ToshDO'TAU professor, f.f.d G.Jurayeva taqrizchi asosida

A SYSTEMATIC APPROACH TO DEVELOPING SUBJECT-RELATED COMPETENCIES IN STUDENTS

Annotation

This article highlights the theoretical and practical aspects of a systematic approach to developing subject-related, particularly speech, competencies among students in the teaching of the Uzbek language. The essence of the competency-based approach, the interrelation between linguistic and speech competencies, modern educational technologies, interactive methods, as well as issues related to the teacher's methodological preparedness, are analyzed in the article. The article provides scientific and practical recommendations on developing students' independent thinking, communication culture, and creative approach.

Keywords: competence, speech competence, communicative approach, linguistic competence, interactive method, written speech, oral speech, creative thinking.

СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ПРЕДМЕТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье освещены теоретические и практические аспекты системного подхода к развитию предметных, в частности речевых, компетенций у учащихся при обучении узбекскому языку. В статье проанализированы сущность компетентностного подхода, взаимосвязь между лингвистической и речевой компетенциями, современные образовательные технологии, интерактивные методы, а также вопросы, связанные с методической подготовкой преподавателя. В статье представлены научно-практические рекомендации по развитию у учащихся самостоятельного мышления, культуры общения и творческого подхода.

Ключевые слова: компетенция, речевая компетенция, коммуникативный подход, лингвистическая компетенция, интерактивный метод, письменная речь, устная речь, креативное мышление.

O'QUVCHILARDA FANGA DOIR KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHGA TIZIMLI YONDASHISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tili ta'limida o'quvchilarda fanga doir, xususan, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga tizimli yondashishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, lingvistik va nutqiy kompetensiyaning o'zaro bog'liqligi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, shuningdek o'qituvchining metodik tayyorgarligi masalalari tahlil etilgan. Maqolada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va ijodiy yondashuvni shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, lingvistik kompetensiya, interfaol metod, yozma nutq, og'zaki nutq, kreativ fikrlash.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga tayyorlashdan iborat. Bugungi globalashuv davrida har bir o'quvchi nafaqat bilim egallashi, balki ularni hayotiy faoliyatda qo'llay olish, muloqotda to'g'ri va erkin fikr bildirishi, o'z fikrini dalillar bilan asoslay olishi lozim. Shu bois, o'quvchilarda fanga doir kompetensiyalarni rivojlantirish, xususan nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'lim sohasidagi islohotlar to'g'risida shunday degan edi: “Yangi O'zbekiston uchun bilimli, tafakkurli, mustaqil fikrlaydigan avlod zarur.” Bu esa har bir o'qituvchidan kompetensiyaviy yondashuv asosida dars tashkil etishni talab qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'taradi va o'quvchining “nima biladi”siga emas, balki “bilganini qayerda va qanday qo'llay oladi”siga qaratilgan. Shu sababli, har bir fan o'zining amaliy mazmuni orqali o'quvchining hayotiy tajribasini boyitishi kerak. Ona tili ta'limida bu jarayon ayniqsa muhim, chunki til – tafakkur va muloqot vositasi sifatida nafaqat kommunikativ, balki ijtimoiy-

madaniy, axloqiy va estetik qadriyatlarni ham shakllantiradi. O'quvchilar o'z fikrini til orqali ifoda etar ekan, ular o'z milliy o'zligiga, madaniyatiga, adabiy merosiga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari “Kompetensiya” atamasi lotincha competere so'zidan olingan bo'lib, “mos kelmoq”, “munosib bo'lmoq” ma'nolarini anglatadi. Pedagogika fanida bu tushuncha o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarni hayotiy vaziyatlarda amaliy qo'llay bilish qobiliyati sifatida izohlanadi. Nutqiy kompetensiya esa o'quvchining til vositalari orqali muloqot qilish, fikrni aniq, izchil va usluban to'g'ri ifoda etish malakasini bildiradi. N.Sh.Turdiyev fikricha, kompetensiya “bilim → ko'nikma → malaka → faoliyat” zanjiri asosida shakllanadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar haqida Yusupova, Sh. - Nutqni rivojlantirishda sharhlash usulining ahamiyati qo'llanmasida so'z boyligining kamligi, chet tilida ustuvor muloqot, o'qish madaniyatining pastligi, ota-onalarning til muhitini yaratmasligi, darsliklarning faqat nazariy yo'nalishda bo'lishi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy faraz ilgari suriladi: Agar o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich yondashuv asosida tashkil etilsa, interfaol metodlar va kommunikativ mashg'ulotlar muntazam qo'llanilsa, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi sezilarli darajada rivojlanadi. Tizimli yondashuv – bu o'qituvchining o'quv jarayonini maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda tashkil etishidir.

Metodologik asos:

O'zbek tili ta'limida tizimli yondashuv quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Diagnostika – o'quvchilarning mavjud bilim va nutqiy ko'nikmalarini aniqlash;

Rejalashtirish – dars mavzulari va usullarini tanlash;

Amalga oshirish – interfaol metodlar asosida kompetensiyalarni shakllantirish;

Refleksiya va tahlil – o'quvchi faoliyatini baholash va xatolarni tuzatish.

Shu tarzda tashkil etilgan dars o'quvchilarning mustaqil fikrlovchi va faol subyekt sifatida ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

2. Fanga doir kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv – o'qituvchining o'quv jarayonini maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda tashkil etishidir. O'zbek tili ta'limida tizimli yondashuv bosqichlari: diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish, refleksiya va tahlil.

3. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy metodlarini M.Mahmudov shunday talqin qildi:

“Savodxon” o'yini – imlo me'yorlarini mustahkamlash;

“Qiziqarli taqdimot” – og'zaki nutqni rivojlantirish;

“Bahs-munozara” – fikrni asoslash, dalil keltirish;

“Onlayn topshiriqlar” – tahliliy fikrlashni rag'batlantirish;

“Assotsiativ xarita” – tafakkur vizuallashtiriladi.

Yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish.

Yozma nutq – grammatik to'g'rilik, izchillik, mantiqiylikni talab qiladi. Og'zaki nutq esa tinglab tushunish, muloqot qilish va rolli o'yinlar orqali shakllanadi.

O'qituvchining metodik tayyorgarligi.

O'qituvchi darsda lingvistik, psixologik va metodik bilimlarga ega bo'lishi, shaxsga yo'naltirilgan dars tashkil etishi, faol metodlardan foydalanishi zarur.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

- og'zaki nutq – suhbat, hikoya, bahs orqali fikr bildirish;

- yozma nutq – matn yaratish, tahlil qilish va xulosa chiqarish.

Yozma nutq o'quvchidan grammatik to'g'rilik, izchillik, mantiqiylikni talab qiladi. O'quvchilar incho, bayon, annotatsiya, xulosa, tahliliy matn yozish orqali o'z fikrlarini mustaqil shakllantiradilar.

Og'zaki nutq esa tinglab tushunish, muloqot qilish, savol-javob va rolli o'yinlar orqali rivojlanadi. O'qituvchining talaffuzi, intonatsiyasi, so'z boyligi o'quvchilar uchun namunaviy rol o'ynaydi.

5. O'qituvchining metodik tayyorgarligi

O'qituvchi darsda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishi uchun:

- lingvistik, psixologik va metodik bilimlarga ega bo'lishi;

- darsni shaxsga yo'naltirilgan usulda tashkil etishi;

- dars jarayonida tahlil, bahs, ijodiy topshiriq kabi faol metodlardan foydalanishi kerak.

O'qituvchining har bir so'z, har bir topshiriqni ongli tanlashi nutqni o'stirish jarayonining muhim omilidir. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarga milliy qadriyatlar, madaniy muloqot me'yorlarini singdirish orqali ularning nutq madaniyatini shakllantiradi.

6. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga to'stinlik qiluvchi omillar

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, quyidagi omillar nutqiy rivojlanish sur'atini sekinlashtiradi:

- So'z boyligining kamligi;
- Chet tilida muloqotning ustuvorligi;
- O'qish madaniyatining pastligi;
- Ota-onalarning til muhitini yaratmasligi;
- Darslik va topshiriqlarning faqat nazariy yo'nalishda bo'lishi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarni til muhitiga faol jalb etish, “til haftaliklari”, “nutq madaniyati klublari” kabi tashabbuslarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy faraz ilgari suriladi:

Agar o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich yondashuv asosida tashkil etilsa, interfaol metodlar va kommunikativ mashg'ulotlar muntazam qo'llanilsa, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi sezilarli darajada rivojlanadi, ularning fanga bo'lgan qiziqishi, muloqot madaniyati va ijodiy fikrlash darajasi o'tadi.

Shuningdek, faraz qilinishicha, metodik qo'llanmalar va ta'lim muhitining interfaoligi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarda fanga doir kompetensiyalarni rivojlantirish, ayniqsa, nutqiy kompetensiya yo'nalishida tizimli yondashuv quyidagi natijalarga olib keladi:

O'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqot qobiliyati kuchayadi;

O'zbek tili ta'limida kommunikativ yondashuv kuchayadi;

Yozma va og'zaki nutqda grammatik va uslubiy aniqlik ortadi;

O'quvchilar tilni nafaqat o'rganadi, balki uning orqali tafakkur qiladi.

Shu bois, har bir o'qituvchi ta'lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki kompetensiyani shakllantirish tizimi sifatida ko'rishi zarur.

O'quvchilarda fanga doir, xususan nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish – zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu jarayon uzluksiz, tizimli va innovatsion yondashuvni talab etadi. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati shundaki, u o'quvchining bilimni yodlab olishini emas, balki uni amalda qo'llay bilish qobiliyatini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda:

o'qituvchining metodik tayyorgarligi va kasbiy mahorati;

dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish; kommunikativ mashg'ulotlar va og'zaki nutq mashqlari;

o'quvchilarning mustaqil yozma ishlari va tahliliy topshiriqlari katta rol o'ynaydi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish orqali o'quvchilarda:

- mustaqil fikrlash;
- ijodiy yondashuv;
- mantiqiy tahlil qilish;
- fikrni grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri ifoda etish;

madaniy muloqot ko'nikmalari shakllanadi.

Shuningdek, tadqiqot gipotezasi o'z tasdig'ini topadi: tizimli, interfaol va kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, ularning nutqiy faolligini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. O'quvchilarda fanga doir kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki shaxsning ijtimoiy faolligi, ijodkorligi va milliy o'zligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shu bois, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi:

Har bir fan o'qituvchisi darsni kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalashi zarur;

Darslarda nutqiy faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlar ulushini oshirish;

Yozma va og'zaki nutqni baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish;

Til o'rganish jarayoniga multimedia vositalarini kiritish;

O'quvchilarda "fikir madaniyati"ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish.

ADABIYOTLAR

1. To'xliyev, B., Shamsiyeva, M., & Ziyodova, O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent-2020. O'qituvchi.
2. Yusupova, Sh. Nutqni rivojlantirishda sharhlash usulining ahamiyati. Toshkent-2018
3. Hamrayev, G'. Fonetika o'quv materiallarini o'qitish metodikasi. Toshkent-2017.
4. Mahmudov, M. Ta'limda tafakkur va qobiliyatni rivojlantirish omillari. T-2016 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-5712-son Farmon: Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent-2019.
6. Умарбекова, Г.А. Креативный подход в обучении русской литературе. International Economic Conference Series. [online] 3 Nov. 2025.
7. Umarbekova, G. A. Проблемы творческих подходов в процессе обучения студентов русскому языку. Alfraganus University. Халқаро педагогик тадқиқотлар журнали «Халқ та'лими» 1-сон 2024.